

MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI
VAZIRLIGI

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI
VAZIRLIGI

O'RTA O'QUV





DIQQAT



Unutmang!!! Ushbu hujjat sizga hech kimga tarqatmaslik sharti bilan **OMONAT** qilib berildi. Agar ushbu hujjat sizga boshqalar orqali kelib qolgan bo'lsa ham **OMONAT** hisoblanadi.

Ushbu **OMONAT**ni faqat o'zingiz uchun foydalaning. Hech kimga bermang, hattoki eng yaqin insoninggizga ham.

Tijoriy maqsadda foydalanmang.
Internet va Veb-sayitlarga joylamang.
Telegram orqali kanal va gruppalariga tarqatmang.

OMONATGA HIYONAT QILMANG.

Telegram orqali admin **Nabiyev Zokirjon**
bilan bog'lanish **91-328-88-38** yoki **Jek567**

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI
VAZIRLIGI

«Nutq oʻstirish»
BOʻYICHA FAOLIYAT
ISHLANMALARI JAMLANMASI

OʻRTA GURUH



“TASDIQLAYMAN”

____-MTT direktori

**____-sonli maktabgacha ta’lim tashkiloti musiqa rahbarining
tayyorlov guruhlar uchun
ISH REJASI**

1	Mavzu
2	O‘ZBEKISTON MENING VATANIM
3	BOLARI
4	O‘ZBEKISTON HAQIDA SHE’R YODLATISH
5	O‘ZBEKISTON
6	“MENING ONA SHAHRIM” MUVZUSIDA HIKOYA TUZISH Ta’limiy faoliyat maqsadlari
7	TRANSPORT BILAN
8	MEN VA MENING OILAM Ta’limiy faoliyat maqsadlari
9	KUZ (NIMA QAYERDA O‘SADI?)
10	MEVA VA SABZAVOTLARNI AJRATAMIZ
11	QOVUN
12	NON QANDAY PAYDO BO‘LADI? DONLAR BILAN TANISHTIRISH Ta’limiy faoliyat maqsadlari
13	BUG‘DOY PISHDI
14	NON HAQIDA HIKOYA VA
15	PAXTADAN NIMA TAYYORLANADI
16	PAXTAKORLAR MEHNATI
17	JARANGLI VA JARANGSIZ TOVUSHLARNI FARQLASH Ta’limiy faoliyat maqsadlari
18	HAR XIL TRANSPORT TURLARIDA SAYOHAT QILAMIZ
19	RANGLI SVETOFOR MAVZUSIDA HIKOYA TUZISH
20	UCH XIL CHIROQ
21	OT O‘CHIRUVCHILIK KASBI
22	GUGURT
23	“KUZ” MAVZUSIDA TASVIRIY HIKOYA TUZISH
24	HAYDOVCHILIK KASBI POCHTACHILIK QANDAY KASB
25	NIMA MIYOVLADI? HIKOYA TUZISH Ta’limiy faoliyat maqsadlari
26	QORA MUSHUKCHA
27	KUCHUKVOY VA MUSHUKVOY

28	QAYSI SO‘Z ADASHIB QOLDI
29	HIKOYA “QISHKI KIYIMLAR
30	QACHON QOR YOG‘ADI? HIKOYA TUZISH
31	LAYLAK QOR
32	“HALOLLIK” O‘ZBEK XALQ ERTAGINI HIKOYA QILISH
33	“SHER BILAN SICHQON” ERTAGINI HIKOYA QILISH Ta’limiy faoliyat maqsadlari
34	YANGI YILDA ARCHA BAYRAMINI QANDAY O‘TKAZDIM?
35	QISH ZAVQI
36	QISH HAQIDA TOPISHMOQLAR
37	“QISHKI MANZARA” MAVZUSIDA HIKOYA TUZISH
38	ONA TABIAT
39	MENING SEVIMLI ARMIYAM
40	BIZ
41	VATAN KO‘NGILDADIR
42	AJDODLARIM XITOBI
43	MENING O‘YINCHOG‘IM Ta’limiy faoliyat maqsadlari
44	QO‘G‘IRCHOG‘IM QO‘RQMAYDI
45	“MENING QO‘G‘IRCHOG‘IM” MAVZUSIDA JAMOA BILAN HIKOYA TUZIS QO‘G‘IRCHOQ
46	MENING BOG‘CHAM
47	MENING BOG‘CHAM
48	OSHPAZ OPA MEHMONDA
49	S. G‘AFUROVNING “YIG‘LOQI” HIKOYASI Ta’limiy faoliyat maqsadlari
50	QARG‘A O‘ZIGA DO‘ST QIDIRMOQDA
51	QARG‘A O‘ZIGA DO‘ST QIDIRMOQDA
52	ALISHER NAVOIY PORTRETI BILAN TANISHUV
53	NAVOIY VA BOYQARO
54	ABDULLA AVLONIYNING “YOMON DO‘ST” ASARINI QAYTA HIKOYA QILISH
55	YOMON DO‘ST
56	“QAYSAR KUCHUKCHA” SURATI ASOSIDA SUHBAT. UY HAYVONLARINI AJRATISHGA O‘RGATISH
57	KUCHUKCHA
58	SOATDA KIM YASHAYDI
59	SOATDA KIM YASHAYDI
60	“Yashirin so‘z” o‘yini
61	POKIZA BO‘LAMIZ Ta’limiy faoliyat maqsadlari

62	“BAHOR KELDI” TASVIRI ASOSIDA HIKOYA
63	KO‘KLAMOYIM
64	ONA HAQIDA
65	OYIM UYDA BO‘LSALAR
67	N. POLYAKOVANING “BAHOR YOMG‘IRI” SHE’RINI YOD OLISH
68	“Mosini top” o‘yini
69	BAHOR YOMG‘IRI
70	“NAVRO‘Z BAYRAMI” MAVZUSIDA SUHBAT
71	S. G‘OFUROVNING “HIDI YOQADI, ARISI CHAQADI” HIKOYASINI O‘RGANISH
72	HIDI YOQADI, ARISI CHAQADI
73	GUNAFSHA
74	ABDULLA AVLONIYNING “BOLARI ILA PASHSHA” ASARINI QAYTA HIKOYA QILISH
75	BOLARI ILA PASHSHA
76	<i>NURXONRAYIMOVANING “YALPIZ” HIKOYASINI O‘RGATISH</i>
77	OYGA SAYOHAT
78	QUYOSHJON
79	TRANSPORT TA’RIFI
80	“TO‘RTINCHISI ORTIQCHA” DIDAKTIK O‘YINI Ta’limiy faoliyat maqsadlari:
81	“J” TOVUSHI
82	AYAJONIM
83	HAYVONOT
84	“MUSHUK VA MUSHUKCHALAR” RASMI BO‘YICHA SUHBAT Ta’limiy faoliyat maqsadlari
85	MUSHUKCHA
86	“MENING UYIM” MAVZUSIDA SUHBAT
87	UYDAGI
88	SHKAFCHA
89	MEBEL BO‘YICHA HIKOYA TUZISH
90	IDISH-TOVOQLAR
91	MAISHIY ASBOBLAR

O‘ZBEKISTON - MENING VATANIM

O‘ZBEKISTON MENING VATANIM

Ta’limiy faoliyat maqsadlari

Ta’limiy: tarbiyalanuvchilarni ona Vatanga nisbatan muhabbat ruhida tarbiyalash, ularda vatanparvarlik tuyg‘usini rivojlantirish;

Rivojlantiruvchi: turli hikoyalar, so‘z o‘yinlari vositasida tarbiyalanuvchilar nutqini rivojlantirish;

Tarbiyaviy: tarbiyalanuvchilarni mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash, ularda jamoa bo‘lib ishlash konikmasini rivojlantirish.

Kerakli jihozlar: AKT, O‘zbekiston xaritasi, O‘zbekiston bayrog‘i.

Ta’limiy faoliyatning borishi

Tarbiyachi: - Assalomu alaykum, mening qadrdon bolajonlarim. Bugungi ta’limiy faoliyatimizda ona Vatanimiz haqida suhbatlashamiz. Qani, bolajonlar, kim aytadi, nima uchun biz Vatanimizni ona Vatan deb ataymiz?

1-bola: - Chunki u onamiz kabi muqaddas, onamiz singari mehribon.

Tarbiyachi: - Faqat onagina o‘z farzandining beminnat yaxshi ko‘radi, uni e‘zozlaydi. Ona farzandining qandayligidan qat’i nazar, u uchun jon fido qiladi, ardoqlaydi. Vatan ham xuddi munis onalarimiz singari bizdan hech narsa so‘ramaydi, boqadi, ardoqlaydi. Shuning uchun ham Biz Vatanni ona kabi sevishimiz, uning xizmatiga tayyor bo‘lishimiz zarur.

Bolajonlar, endi diqqatingizni monitorga qarating.

(Monitorda O‘zbekiston xaritasi ko‘rsatiladi.)

Tarbiyachi: - Bolajonlar, dunyoda shaharlar ko‘p. Har bir yurt o‘sha yerda tug‘ilgan inson uchun Vatan hisoblanadi. Shunday ekan, har bir inson o‘z Vatanini yaxshi ko‘radi, uning uchun fido bo‘ladi.

Bolajonlar, bu O‘zbekistonning xaritasi. Unda hamma viloyatlar ko‘rsatilgan. O‘zbekiston jahonda o‘z o‘rni va nufuziga ega. Bilasizlarmi, bolajonlar, sportchi- lar musobaqada ishtirok etib g‘olib bo‘lganlarida O‘zbekiston bayrog‘i yuqoriga ko‘tarilib, madhiyamiz yangraydi. Ana shu jarayonni televizor orqali ko‘rib dilim- da o‘zgacha g‘urur va iftixor tuyg‘ularini tuyaman. Sizning ham orangizda sport- chi bo‘lishni istaganlar bormi?

2-bola: - Men bokschi Hasanboy Do‘stmatovga o‘xshagan bokschi bo‘laman.

3-bola: - Men esa zo‘r futbolchi bo‘laman.

Tarbiyachi: - Nasib etsa sizlarning zo‘r sportchi bo‘lganlarni ko‘ramiz. Ho- zir esa chet elda musobaqaga qatnashib tomosha qilamiz. Hammangiz diqqatingizni monitorga qara- tinglar.

(Monitorda yosh sportchi bilan ona, g‘olib bo‘lib kelgan yigitcha bilan bo‘lgan suhbatni birgalikda Vatan haqidagi qisqa suhbat ko‘rsatiladi. Sportchi chet ellarda yurganida uch kundan keyin o‘z uyi, ota-onasini sog‘in- ganini, O‘zbekis fanning ajib sehrli diyor ekanini aytadi.)

Tarbiyachi: - Bolajonlar, ko‘rdingizmi, sportchi o‘z suhbatida Vatanga hech nima teng kelolmasligini aytib o‘tdi. Shunday ekan, uning har bir qarich yeri- ni asrab avaylashimiz, uning rivojlanishiga hissa qo‘shadigan munosib farzand bo‘lishimiz zarur.

Qani, bolajonlar, endi badantarbiya daqiqasini o‘tkazib olaylik-chi. Hozir sizlar- ga sevimli shoirimiz Quddus Muhammadiyning “Bolari” she’ridan parcha o‘qiy- man. Sizlar esa o‘zingizni bolari deb tasavvur qilib, doira shaklida turib olib ucha- sizlar. Uchish jarayonida qo‘llaringiz ikki yonda, bir-biringizga tegib ketmasdan harakatlaninglar.

BOLARI

Quddus Muhammadiy

G‘uv-g‘uv uchar bolari,
Duv-duv uchar bolari.
Guldan gulga qo‘nishib,
Sharbat ichar bolari.
Bolari, hoy, bolari,
G‘uv-g‘uv nag‘mang chal.
Bog‘imizda yayrashib,
Uchib o‘yin sol, ari!
Sen qadrdon do‘stimiz,
Asaling yeb o‘sdik biz,
Bog‘chamizda qol, ari!

Tarbiyachi: - Barakalla, bolajonlar, endi sizlar bilan so‘z o‘yini o‘ynaymiz.

Men gapning boshini aytaman, sizlar esa uni davom ettirasizlar.

Bizning ona Vatanimiz ... (O‘zbekiston)

Biz Vatanimizni... (yaxshi ko‘ramiz)

Vatanni sevmok... (iymondandir)

Ona Vatanimizga munosib (farzand bo‘lamiz)

O‘zbekistonning poytaxti - ... (Toshkent)

Ayrilmagin elingdan... (quvvat ketar belingdan)

Tarbiyachi: - Bolajonlar, endi esa madhiyamizni tinglaymiz va uning so‘zlari- ni birga qaytaramiz.

(Madhiya yangraydi, bolajonlar qo‘llari ko‘ksida madhiya so‘zlarini qaytara- dilar.)

Tarbiyachi: - Bolalar, endi mana bu savollarga javob beringlar:

Siz Ona Vatanningizni nima uchun yaxshi ko‘rasiz?

Siz katta bo‘lganingizda Vatanga munosib farzand bo‘lish uchun nimalar qilmoqchisiz?

Ona Vatan haqida birorta rivoyat bilasizmi?

O‘ZBEKISTON HAQIDA SHE’R YODLATISH

Ta’limiy faoliyat maqsadlari

Ta’limiy: tarbiyalanuvchilarda Vatan haqidagi tushunchalarni kengaytirish, M. Dadaboyevning “O‘zbekiston” she’rini yodlatish orqali xotirasini charxlash, nutqini rivojlantirish;

Rivojlantiruvchi: bolalarda so‘z boyligini oshirish, she’rni ifodali aytishga o‘rgatish va dunyoqarashini rivojlantirish;

Tarbiyaviy: bolalar o‘rtasida o‘zaro bir-birlarini hurmat qilish, tinglash va ja- moa bo‘lib o‘ynash ko‘nikmalarini rivojlantirish.

Keraklijihozlar: she’rga mos rasmlar, kartochkalar, AKT.

Ta’limiy faoliyatning borishi

Tarbiyachi: - Bugungi ta’limiy faoliyatimiz ham jonajon vatanimiz O‘zbe- kistonni o‘rganishga bag‘ishlanadi. Bolajonlar, yurtimiz jannatmakon va ser- quyoshdir. Ya’ni, to‘rt fasl almashib keladi. Qaysi fasllar ekanligini bir yodga oling-chi.

Bolalar: - Qish, bahor, yoz va kuz fasllari.

Tarbiyachi: - Barakalla, yurtimizda o‘sgan meva-sabzavotlar shirin- shakarli- gi, qovun-tarvuzlarning tilni yorar darajadagi mazasi butun dunyoga mashhur. Buning sababi bahor, yoz va kuz fasllarida ham quyosh bo‘lishidir. Jahonda shun- day yurtlar borki, u yerlarda quyoshli kunlar kam bo‘ladi. Shuning uchun meva- sabzavotlarining mazasi biznikidek shirin bo‘lmaydi.

(Ektranda yurtimizda yetishtirilgan meva-sabzavotlar tasvirlangan namoyish ko‘rsatiladi.)

Ayting-chi, bolajonlar, O‘zbekistonimizda davlat tili qaysi til hisoblanadi? **Bolalar:** - O‘zbek tili davlat tilidir.

Tarbiyachi: - Barakalla, o‘zbek tili davlat tili hisoblanadi. Davlat hujjatlari o‘zbek tilida yuritiladi. Butun dunyoga mashhur bo‘lgan asarlar ham shu tilda yaratilgan. Bugun biz vatanimiz haqida yozilgan shoir Mahmudjon Dadaboyevning “O‘zbekiston” nomli she‘rini o‘rganamiz.

(Tarbiyachi she‘rni ifodali o‘qib beradi.)

O‘ZBEKISTON

Mahmudjon Dadaboyev

O‘zbekiston
Nurli bo‘ston,
Noming sening
Tilda doston.
Jahon ichra
Yagonasan,
Xalqing ulug‘,
Mardonasan.
Senga hurlik
Omon keldi,
Eling kutgan
Zamon keldi.
Sensan mening
Baxt-iqbolim,
Bo‘lsin mangu
Istiqlolim.

Tarbiyachi: - Bolajonlar, she‘rda nima haqida ekan?

Bolalar: - Vatanimiz mustaqilligi haqida ekan.

Tarbiyachi: - Unda men she‘r to‘rtliklarini o‘qiyman, sizlar esa takrorlaysizlar:

O‘zbekiston
Nurli bo‘ston,
Noming sening
Tilda doston.

(Bolalar takrorlaydi.)

Tarbiyachi: - Bolalar, endi she‘rning keyingi to‘rtligini o‘qiyman, sizlar esa takrorlaysizlar.

**Jahon ichra
Yagonasan,
Xalqing ulug‘,
Mardonasan.**

(Bolalar takrorlaydi.)

Tarbiyachi: - Bolajonlar, endi she’ning keyingi to’rtligini yod olamiz.
Senga hurlik
Omon keldi,
Eling kutgan
Zamon keldi.

Tarbiyachi: -

Sensan mening
Baxt-iqbolim,
Bo‘lsin mangu
Istiqlolim.

Tarbiyachi: - Bolajonlarim, she’r yodingizda qoldimi? Unday bo‘lsa mazkur she’mi yod olib aytgan bolalami tomosha qiling va sizlar ham u bilan birgalikda takrorlang.

(Ekranida “O‘zbekiston” she'rini yoddan o‘qiyotgan bola namoyish etiladi va bolalar unga jo‘r bo‘lgan holda she’rni takror aytishadi.)

Tarbiyachi: - Bolajonlar, endi she’rda nimalar tasvirlanganini o‘z so‘zingiz bilan aytib bering-chi.

1- **bola:** - She’rda vatanimizning mustaqilligi aytilgan.

2- **bola:** - She’rda xalqimizning ulug‘ligi haqida aytilgan.

(Shu tariqa she’r tahlili davom ettiriladi.)

Tarbiyachi: - Endi mana bu kartochkalardan Vatanimiz ramzlari tushirilgan qatorni topamiz.

(Bolalar kartochkalardan Vatan ramzlarini topishadi. Uyga vazifa sifatida ota-onalarga she’mi takrorlatish tayinlanadi.)

“MENING ONA SHAHRIM” MUVZUSIDA HIKOYA

TUZISH Ta’limiy faoliyat maqsadlari

Ta’limiy: tarbiyalanuvchilarda o‘zi yashab turgan joy haqida tasavvurlarini kengaytirish, so‘zlarni to‘g‘ri qo‘llashga orgatish, nutqini rivojlantirish;

Rivojlantiruvchi: bolalarda so‘z boyligini oshirish, fikrlarini ogzaki nutqda ifo- dalashga o‘rgatish va dunyoqarashini rivojlantirish;

veb-saytimiz: Zokirjon.com

Zokirjon.com veb-sayti orqali o'zingiz uchun kerakli ma'lumotlarni yuklab oling.

Zokirjon Admin bilan

91-328-88-38 nomerga telegram orqali bog'lanishingiz yoki telegramdan @jek567 izlab telegramdan yozishingiz so'raladi.

Telegramda murojaatingizga o'z vaqtida javob beriladi.

122 listdan iborat o'rta guruhlariga nutq o'stirish faoliyat ishlanmalarini to'liq holda olish uchun telegramdan yozing.




Telegram kanalimiz:

@maktabgacha_tt

To'lov uchun: HUMO 9860230104973329

Plastik egasi Nabiyev Zokirjon



DIQQAT!!!

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.
To'liq holda olganingizdan so'ng:
Faqat o'zingiz uchun foydalaning.
Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.
Internet orqali veb-saytlarga joylamang.

Kanal va gruppalariga tarqatmang.

OMONATGA

HIYONAT QILMANG.